

## RAHBAR FAOLIYATI HAQIDA ZAMONAVIY PSIXOLOGIK QARASHLAR

*Mamajonova Nozimaxon Mahmudjon qizi*

*Andijon viloyati Shahrixon tumani*

*11-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

*Sharipova Zarnigor Ravshanbekovna*

*Andijon viloyati Shahrixon tumani*

*23-umumiy o'rta ta'lim maktabi psixologi*

### ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada rahbar faoliyati haqida zamonaviy psixologik qarashlar, rahbar shaxsining psixologik xususiyatlari, boshqaruv jarayonida kommunikativ kompetensiyaning o'rni hamda samarali rahbarlikning psixologik omillari yoritilgan. Shuningdek, rahbarning jamoa bilan ishlash uslubi, motivatsiya yaratish qobiliyati va zamonaviy boshqaruv tamoyillarining inson psixologiyasiga ta'siri tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** rahbar, boshqaruv psixologiyasi, liderlik, kommunikativ kompetensiya, motivatsiya, jamoa, boshqaruv uslubi, emotsional intellekt, psixologik muhit, liderlik sifati.

### KIRISH

Zamonaviy jamiyatda rahbar faoliyati nafaqat tashkilotni boshqarish, balki insonlar bilan samarali munosabat o'rnatish, jamoada sog'lom psixologik muhit yaratish va xodimlarning ichki imkoniyatlarini yuzaga chiqarish bilan ham chambarchas bog'liqdir. Shu sababli rahbar faoliyatiga oid psixologik qarashlar so'nggi yillarda yanada dolzarb mavzuga aylanmoqda. Zamonaviy psixologiya rahbarni oddiy buyruq beruvchi shaxs emas, balki jamoani birlashtira oladigan, motivatsiya bera oladigan va inson psixologiyasini chuqur tushunadigan yetakchi sifatida talqin qiladi.

Rahbar faoliyatining samaradorligi ko'p jihatdan uning psixologik sifatlariga bog'liq bo'ladi. Masalan, mas'uliyatlilik, qat'iyatlilik, emotsional barqarorlik, adolatlilik va muloqotga kirishuvchanlik rahbarning asosiy fazilatlari hisoblanadi. Ayniqsa, emotsional intellektning yuqori darajada rivojlanganligi zamonaviy rahbar uchun muhim omillardan biridir. Emotsional intellekt insonning o'z his-tuyg'ularini boshqara olish, boshqalarning hissiy holatini tushunish va vaziyatga mos ravishda to'g'ri qaror qabul qilish qobiliyatini anglatadi. Bunday rahbar jamoa bilan iliq munosabat o'rnatadi va nizolarni samarali hal eta oladi.

Psixologiyada rahbarlikning turli uslublari mavjud bo‘lib, ular avtoritar, demokratik va liberal boshqaruv shakllariga bo‘linadi. Zamonaviy qarashlarga ko‘ra, demokratik boshqaruv uslubi eng samarali uslublardan biri sifatida baholanadi. Chunki bunda rahbar jamoa a‘zolarining fikrini inobatga oladi, ularga ishonch bildiradi va qaror qabul qilish jarayoniga jalb qiladi. Natijada xodimlarda mas‘uliyat hissi va ishga bo‘lgan motivatsiya ortadi.

Rahbarning kommunikativ qobiliyati ham uning muvaffaqiyatida muhim rol o‘ynaydi. To‘g‘ri va samimiy muloqot jamoada o‘zaro ishonchni shakllantiradi. Rahbar tinglash madaniyatiga ega bo‘lishi, xodimlarning muammolariga befarq bo‘lmasligi va ularni ruhlantira olishi kerak. Zamonaviy psixologik qarashlarda “inson omili” boshqaruvning markaziy qismi sifatida qaraladi. Ya’ni tashkilot muvaffaqiyati avvalo insonlarning ruhiy holati, motivatsiyasi va jamoaviy munosabatlariga bog‘liq deb hisoblanadi.

Bugungi kunda rahbarlardan innovatsion fikrlash, moslashuvchanlik va tezkor qaror qabul qilish qobiliyati ham talab etiladi. Globalizatsiya va axborot texnologiyalarining rivojlanishi boshqaruv tizimiga ham katta ta’sir ko‘rsatmoqda. Shu sababli zamonaviy rahbar psixologik bilimlarga ega bo‘lishi, stressni boshqarish va krizis vaziyatlarida jamoani qo‘llab-quvvatlashni bilishi lozim.

Rahbar faoliyatida motivatsiya yaratish muhim ahamiyatga ega. Xodimlarni faqat moddiy rag‘batlantirish emas, balki ma’naviy qo‘llab-quvvatlash, ularning mehnatini qadrlash va o‘sish imkoniyatlarini yaratish ham samarali boshqaruvning asosiy omillaridan hisoblanadi. Psixologik tadqiqotlarga ko‘ra, o‘z mehnati qadrlanayotganini his qilgan xodimning ish unumdorligi yuqori bo‘ladi.

Shuningdek, zamonaviy psixologik qarashlarda rahbarning shaxsiy namuna ko‘rsatishi ham alohida ta’kidlanadi. Rahbarning intizomi, muomala madaniyati, mas‘uliyati va halolligi jamoaga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Chunki jamoa ko‘pincha rahbarning xatti-harakatlariga qarab o‘z faoliyatini shakllantiradi.

Rahbar faoliyatining psixologik jihatlari ta’lim, sog‘liqni saqlash, ishlab chiqarish va boshqa barcha sohalarda muhim hisoblanadi. Ayniqsa, ta’lim muassasalarida rahbarning pedagogik va psixologik madaniyati o‘quvchilarning ta’lim sifati hamda jamoaning umumiy muhitiga katta ta’sir qiladi.

“Rahbarlik yuksak aql-farosat, ko‘p kuch-g‘ayrat, izlanish va topqirlikni, o‘z ustida tinmay ishlashni, o‘rni kelganda, zaruriy tadbirkorlikni talab qiladi. Rahbarlik tushunchasiga quyidagi ta’riflarni keltirish mumkin:

1. Rahbar ijtimoiy shaxs sifatida ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish resurslarini birlashtirib, uning asosiy harakatlantiruvchi kuchini boshqaruvchi sifatida omilkorlik bilan ish yurituvchi shaxsdir.

2. Rahbar har qanday ishni amalga oshirish uchun, avvalo, mustaqil qaror qabul qiladi. Bu qaror rahbarning tadbirkorlik, ishbilarmonlik faoliyati maqsadini belgilaydi.

3. Rahbar o‘z sohasiga yangi g‘oya, yangi tashabbus, yangi texnologiyalarni joriy etuvchi tadbirkor shaxs hisoblanadi.

Rahbar - ustoz, murabbiy, rahbar-millat tarbiyachisi, abadiyatga daxldor shaxs. Uning mashaqqatli mehnati o‘laroq kelajagimiz vorislari kamol topib boradi. Demak, rahbarlarga qaratilgan e‘tibor Vatan taqdiriga qaratilgan e‘tibordir. “Davlat rahbarlari fuqarolarning sadoqati va fidoiyligila qudratlidir”, - degan edi Amir Temur. Bundan tashqari respublikamizda rahbar xodimlar katta bo‘g‘inni tashkil etadi. Shuning uchun rahbar qay darajada milliy g‘oya va e‘tiqod bilan qurollangan va uni anglab olgan bo‘lsa jamiyat shunchalik taraqqiyotga erishadi. Boshqacha qilib aytganda, milliy g‘oya va e‘tiqod qanchalik mazmunli, har bir rahbarning uzoqqa mo‘ljallangan maqsad va manfaatlari, kelajakda esa jamoaning istiqbolini belgilashga xizmat qiladigan bo‘lsa, uni kishilar shunchalik tez qabul qiladi. Va unga nisbatan ijobiy munosabat shakllanadi. Shu tufayli rahbar o‘tkir hissiy bilish va intellektual qobiliyatlarini shakllantira borish, so‘z bilan amaliyotning nomutanosibliigi holatlarini kuchliroq anglashi zarur.

Bundan tashqari rahbar quyidagilarga e‘tibor qaratishi zarur:

1. Biz yashayotgan o‘zgaruvchan muhit rahbarlardan o‘zlarini va o‘z vaqtlarini samarali boshqarish imkoniyatiga ega bo‘lishni talab etadi.

2. An’anaviy qadriyatlarning yemirilishi bilan bog‘liq holda zamonaviy rahbar o‘z shaxsiy qadriyatlarini ko‘rsata olishni talab etadi.

3. Tanlash uchun ulkan imkoniyat bo‘lganligi sababli, rahbardan bajarilayotgan ishning maqsadlarini ham, o‘z maqsadlarini ham aniq belgilash talab etiladi.

4. Uzluksiz o‘rganish orqali o‘zlarining o‘sishini, rivojlanishini doimiy qo‘llabquvvatlash.

5. Muammolarni tez va samarali yechish talab etiladi.

6. Rahbarlar vaziyatning o‘zgarishiga ta’sirchan munosabatda bo‘lish uchun mohir va moslashuvchan bo‘lishi kerak, ya’ni strategik boshqaruv usullarini o‘zlashtirishi kerak.

7. An’anaviy ierarxik munosabatlardagi qiyinchiliklar tufayli samarali boshqarish to‘g‘ridan-to‘g‘ri buyruqlarga murojaat qilmasdan, odamlarga ta’sir o‘tkazish qobiliyatlaridan foydalanishni talab qiladi.

8. Ko‘plab an’anaviy boshqaruv usullari o‘z imkoniyatlarini tugatganligi tufayli, yangi, zamonaviy boshqaruv usullari talab qilinadi. Ularning bo‘ysunuvchilariga nisbatan turli xil yondashuvlarni o‘zlashtirish kerak.

9. Rahbar tezda ixtirochi va ishda samarali bo‘la oladigan jamoalarni tuzishi va takomillashtirishi kerak.

Bundan tashqari doimo rahbar shaxs qo‘l ostidagilarga o‘rnak bo‘lishi darkor. Shuning uchun ham Albert Eynshteyn bejiz “Kishilarni nimagadir o‘rgatishning eng ma‘qul usuli-ularga o‘rnak bo‘lish”, - demagan.

“Har bir rahbar faoliyat mezonini - bu xalqning orzu-umidlarini o‘zi uchun asosiy maqsad qilib, ularni izchil ro‘yobga chiqarishdan iborat”, - degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bundan tashqari rahbarga faoliyati davomida ta‘sir qiluvchi yetakchi omillar quyidagilar:

1. Til bilish zaruriyati. Misol tariqasida olaylik, O‘zbekiston Respublikasida 130 dan ortiq millat va elatlar istiqomat qiladi. Yurtimizda chet tillarini bilish hozirgi davrda nafaqat rahbarlik faoliyatiga, balki kundalik maishiy xizmatlarga ham o‘zining ta‘sirini ko‘rsatmasdan qolmaydi. Bundan tashqari til bilish rahbarning ustunlik jihatidir. Sababi rahbar bevosita chet davlatlar bilan hamkorlik ishlarini olib boradi, shunday vaziyatda til bilish qobiliyati rahbar shaxs uchun foydali jihatdir.

2. Vaqt masalasi. Har qanday rahbar uchun bugungi kunda eng muhim muammo ish vaqtdan oqilona foydalanish hisoblanadi. Shuning uchun ham rahbarlik mehnatini ilmiy asosda tashkil etishning boshlang‘ich bosqichi rahbarlik tizimi xodimlariga ish vaqtdan unumli foydalanishni o‘rgatishdir. Yuqorida aytganimizdek, vaqt tanqisligi bu - har xil darajadagi rahbarlarni hammadan ko‘proq tashvishlantiradigan muammolaridan biridir, chunki ular uchun vaqt omili odatda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. “Vaqt shunday bir manbaa hisoblanadiki, har bir rahbar unga barobar miqdorda ega bo‘ladi. Shuning uchun ham uning qancha vaqtga ega ekanligi muhim emas, balki rahbarning o‘zi ega bo‘lgan vaqtdan qanday unumli foydalana olgani muhimdir. “Vaqt-shunday noyob resurski, - deb yozadi Professor K.Abdurahmonov, - uni pul singari jamg‘arib bo‘lmaydi. U bizning mavjudligimizning eng moslashmaydigan elementidir”.

3. Rahbarning zamonaviy texnologiyalarni bilish qobiliyati. Barchamizga ma‘lumki, XXI asr “Ilg‘or texnologiyalar asri”, shunday ekan zamonamizni boshqaruvchi rahbarlar texnologiyalardan bemalol foydalana olishlari zarur. Bu albatta, rahbar uchun ham foyda, ham uning ustunlik jihatidir.

4. Rahbar imiji. Imij-(inglizcha-qiyofa, tasvir) odamlar ongida muayyan shaxs, tashkilot va boshqa ijtimoiy obyektga nisbatan yuzaga keluvchi, idrok etilayotgan obyekt haqidagi axborotni o‘zida mujassamlashtirgan va ijtimoiy xulq-atvoriga da‘vat etadigan muayyan sintetik obraz. Bir so‘z bilan aytganda, rahbar shaxs imiji bu - uning tashqi qiyofasi. Shunday ekan rahbarning kiyinish uslubi ham uning

ish faoliyatiga katta ta'sir qiladi. Rahbar imijning eng asosiy qoidasi insonda 3 tadan ortiq rang bo'lmasligi kerak (bu rahbar yoki notiqning imiji albatta). Chunki, insonda 3 tadan ortiq rang bo'lsa, insonning ta'sir doirasi kamayib ketadi, ommaning diqqati bo'linadi. Shuning uchun doimo kiyinish odoblariga rioya qilish zarur.

5. Rahbarning nutq odoblari. Kaliforniyaning Los Anjeles universitetida tadqiqot o'tkazilgan. Nutq so'zlayotgan shaxsning ommaga nimasi ta'sir qiladi?

Tashqi ko'rinish 55%, inson hissiyoti, ya'ni tana harakatlari 38%, nutqning nima haqida ekanligi 7% ni tashkil qilar ekan. Albatta, odamlarda vizual xotira juda yaxshi rivojlangan bo'ladi. Bundan ko'rinadiki, ko'rish orqali yaxshi ma'lumot olamiz. Bizning nima haqida so'zlayotganimiz e'tibor bergan bo'lsak, 7% ni tashkil etar ekan. Ayniqsa, rahbarlar omma oldiga chiqadi, boshqa davlatlar bilan hamkorlik qiladi, boshqa tashkilot rahbarlari bilan hamkorlik qiladi, o'zining qo'l ostidagi xodimlar bilan doimiy muloqotda bo'lar ekan imij, nutq qoidalariga amal qilgan holda kiyinib nutq so'zlashi, uning ta'sir doirasini oshirib, hurmatini ko'tarilishiga yordam beradi.

“Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”, - degan edi Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev. Haqiqatan, tahlil qilish insonni rivojlantiradi, tartib-intizom maqsad sari yetaklaydi, shaxsiy javobgarlik esa insonda “men”ni shakllantiradi, har bir ishini o'ylab qilishi zarurligini anglatadi. Bularning barchasi rahbar shaxsda shakllangani maqsadga muvofiq bo'ladi desak, adashmaymiz.

Qadim-qadim ajdodlarimizning kindik qoni to'kilgan muqaddas maskanimiz sanalamish shu Vatanning bir kaft tuprog'i, zilol suvi, toza havosi, rango-rang adir-u, tog'-toshlari yurakka shunchalik yaqinki, buni bir so'z bilan ta'riflash qiyin. Ana shunday mo'tabar Vatanda rahbarlik qilish, uning kelajak avlodi, har bir jamoasiga ma'sul bo'lish, butun umrini rahbarlik mehnatiga bag'ishlash, yurt ravnaqi uchun umrini sarflash har bir yetakchi uchun katta baxtdir. Bunday rahbarlar bilan qancha faxrlansak arzidi. Bizning Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ana shunday rahbarlar sirasiga kiradi. Ularning har bir so'zi, qilayotgan islohotlari yosh rahbarlar uchun katta saboqdir. So'zlarimning isboti ularning quyidagi nutqida o'z tasdig'ini topadi. “Ochiq aytmoqchiman: mening tabiatim bunday soxta hayotni mutlaqo qabul qilolmaydi. Xalqimiz menga ishonch bildirdi, ana shu yuksak ishonchni oqlash, elyurtimizga munosib hayot sharoitini yaratib berish - men uchun hayotimning ma'nomazmunidir. Men millionlab insonlarning taqdiri uchun mas'uliyatni zimmamga olgan ekanman, islohotlar borasida boshqacha yo'l tutishim, hammasini avvalgidek qoldirishim aslo mumkin emas”.

**XULOSA:** Xulosa qilib aytganda, zamonaviy psixologik qarashlarda rahbar shaxsi jamoani boshqaruvchi emas, balki uni birlashtiruvchi, qo'llab-quvvatlovchi va rivojlantiruvchi yetakchi sifatida talqin qilinadi. Rahbarning psixologik bilimlarga ega

bo'lishi, emotsional intellekti va kommunikativ qobiliyatlari tashkilot muvaffaqiyatining muhim omillaridan biridir. Sog'lom psixologik muhit yaratishga qodir rahbar jamiyat taraqqiyotiga ham katta hissa qo'shadi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Boshqaruv psixologiyasi
2. Umumiy psixologiya
3. Psixologiya
4. Zamonaviy menejment va liderlik bo'yicha ilmiy maqolalar hamda metodik manbalar.
5. O'sha manba: 2-bet
6. N. Boymurodov. "Rahbar psixologiyasi". Toshkent. - "Yangi asr avlodi". 2007. 327 B
7. O. Salimov. "Boshqaruv Hikmati". Toshkent. "Ta'lim" nashriyoti. 2018. 168 B
8. N. Boymurodov. "Rahbar psixologiyasi". Toshkent. "Yangi asr avlodi". 2007.